


MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI



Surxondaryo viloyati Termiz shahri

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Shoymardonova Fotima

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada o'zbek tilidagi mustaqil so'z turkumlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. So'z turkumi, mustaqil so'zlar, ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh, grammatik.

So'z turkumlari tilshunoslik tarixining eng qadimgi davrlaridayoq o'rghanish obyekti bo'lgan edi. Qadimgi Yunon tilshunoslidayyoq so'z turkumlari tushunchasi shakllana boshlagan.

Sharq tilshunoslida antik tilshunoslik bilan mushtarak tomonlar anchagina. Xususan, hind va arab tilshunoslarining qarashlari antik tilshunoslarnikiga anchagina yaqin keladi. Masalan, hindlar to'rt a'zoli, arablar uch a'zoli paradigma ajratganlar. Hindlar ot va fe'l asosiy so'z turkumlaridan tashqari ko'makchi va yuklamani ajratgan bo'lsalar, arablar yuklamagini ajratadilar. Arab tilshunosligi an'analariga asoslanib dastlabki turkiyshunoslар ham uchta so'z turkumini ham ajratadilar. Masalan, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariylarda ham ana shunday uchlik kuzatiladi. Keyinchalik, A.Navoiy ham ana shunday uchta so'z turkumini ajratgan, biroq o'z

navbatida ot va fe'l turkumiga xos jihatlarni aynan turkiy tillar xususiyatlariga asoslanib ancha mukammal izohlab bera olgan. Yana shunga e'tibor berish lozimki, bu uchta so'z turkumi ichki bo'linish xususiyatiga ega. Xususan, Mahmud Koshg'ariy arab tilshunosligi vorisi sifatida an'anaviy uchta turkumni ajratsa-da, *ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ko'makchi va undovlarni* ancha izchil farqlagan.

So'z turkumi, nomidan ma'lumki, so'zlardan tuzilgan bo'lishi shubhasiz. O'zbek tilida so'zlarni turkumlarga ajratilishda ularning qanday so'roqqa javob bo'lishiga qarab, *mustaqil, yordamchi va oraliq* so'zlarga bo'linadi.

So'zlearning lug'aviy va grammatik ma'no jihatdan o'xshashligiga ko'ra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik ma'no-lari bilan bir qatorda, lug'aviy ma'nosi ham asosiy belgilardan hisob-lanadi. Ham grammatik, ham leksik ma'nolarga ega bo'lib, gapda mustaqil sintaktik bo'lak sifatida ishtirok etadigan so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi. Mustaqil so'zlarga:

№	So'z turkumi	So'rog'i	Namuna
1	Ot	<i>Kim?, Nima?, Qayer?</i>	<i>Ahmad, uy, O'zbekiston</i>
2	Sifat	<i>Qanday? Qanaqa?</i> <i>Qaysi?</i>	<i>Katta, noto'g'ri, bardavom, badfe'l</i>

3	Son	<i>Necha? Nechanchi?</i> <i>Nechta? Qancha?</i>	<i>to 'qson, yuz,</i> <i>ming, million,</i> <i>milliard.</i>
4	Olmosh		<i>barcha, hamma,</i> <i>ular, bu, qancha ?</i>
5	Ravish	<i>Qanday? Qanaqa?</i> <i>Qancha? Qay holatda? Qay</i> <i>tarzda? Qachon?</i>	<i>tez, kecha,</i> <i>oldin, ko 'p</i>
6	Fe'l	<i>Nima qilmoq? Nima</i> <i>qiladi? Nima qildi? Nima</i> <i>qilmoqchi? Nima qilgan?</i>	<i>bordi, keldi,</i> <i>o'qigan, turibdi,</i> <i>o'qidi</i>

От со`з туркumi — mustaqil со‘з туркумларидан бири. У бoshqa туркумлардан bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a) ot yasalish xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog‘bon, oshpaz, Mirzacho‘l;
- b) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola — bolalar, daftar—daftarlar;
- c) egalik ko‘rsatkichiga ega: otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari; g) kelishik shakllari bilan o‘zgaradi; mакtab, mакtabning, mакtabni, mакtabga, mакtabda, mакtabdan;
- e) gapda barcha gap bo‘laklari vazifasida keladi Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo‘ladi.

Sifat (tilshunoslikda) — predmet belgisini bildiruvchi so‘zlar turkumi.

Grammatikada belgi so‘zi keng tushunchali bo‘lib, u belgini rang-tus, hajm, shaklko‘rinish, xususiyat va sh.k.ga ko‘ra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa Shu xususiyatlariga ko‘ra, sifatlar ma’nosiga qarab bir necha turga bo‘linadi Sifat asosan otga bog‘lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: oq ko‘ylak, kuzgi ekin, aqli qiz, yumshoq non, o‘rtancha o‘g‘il. Bunda belgi bildiruvchi so‘z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi.

Narsaning, miqdori, sanog‘i yoki tartibini bildirib, qancha? nechta? nechanchi? so‘roqlaridan briga javob bo‘ladigan so‘zlar **son** deyiladi. Sonlar sifat singari belgi tasavvuri bilan aloqador bo‘lib, narsaning miqdori, sanog‘i va tartibiga ko‘ra belgisini ifodalaydi: **beshta kitob, uchala talaba, birinchi kurs** kabi.

Sonning ma’no turlari. Sonlar ma’no jihatdan, dastlab, ikki guruhga bo‘linadi: 1) miqdor son, 2) tartib son.

Fe’l barcha tillarda ham faol bo‘lgan so‘z turkumlaridan biridir. Fe’l semantik doirasi keng, lekin, asosan, ish- harakat hamda ish-harakat tasavvurini beradigan holatni anglatadi. Fe’l so‘z turkumining o‘rganilishi boshqa so‘z turkumlariga uzviy bog‘liq. Eng katta so‘z turkumi ham fe’l hisoblanadi.

Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba’zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so‘z turkumi ravish deyiladi. Sifat so‘z turkumi kabi ravish ham belgi bildiradi. Lekin sifat, asosan, predmetning belgisini, ravish esa, asosan, ish-harakatning belgisini, belgining belgisini bildiradi.

Ravish ish-harakatning bajarilish tarzi (astoydil urindi), payti (hozir keldi), o`rnini (yuqoriga intildi), miqdori (kam gapirdi), darajasi (nihoyatda achindi), sababi (noiloj ko`ndi) va maqsadi (jo`rttaga indamadi)ni anglatadi. Ayrim ravishlar ba'zan otga bog`lanib, predmetning noaniq miqdorini (ko`p kitob), sifat va ravishning o`ziga bog`lanib, belgini kuchini; darajasini, o`xshashligini (obdon pishiq, ancha ilgari, toshday qattiq) ifodalaydi. SHu ma'no xususiyatlariga ko`ra ravish qanday? qaytarzda? qachon? qaerga? qaerda? qaerdan? qancha? qay darajada? nega? nima maqsadda? kabi so`roqlariga javob bo`ladi

Olmosh so'z turkumi boshqa so'z turkumlari ot, sifat, son, ravish so'z turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'z turkumidir. Olmoshlarning asosiy vazifasi va qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishi matnda oydinlashadi. Olmoshlar ma'no va Grammatik xususiyatlariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari - men, sen, u, biz, ular bo'lib, shaxslar o'rnida ishlatiladi;
2. O'zlik olmoshi - o'z so'zidan iborat bo'lib, predmet ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatadi;
3. Ko'rsatish olmoshi - bu, shu, o'sha, u, ana, mana kabi so'zlar predmet va uning belgilarini ko'rsatadi;
4. So'roq olmoshlari - kim?, nima?, qancha?, qanday? kabi so'zlar predmet, belgi va miqdor haqida so'roqni bildiradi;
5. Belgilash - Jamlash olmoshi - hamma, bari, ba'zan, har nima, har qanday kabi so'zlar predmet va uning belgisini umumlashtirib, jamlab ko'rsatadi;

6. Bo'lishsizlik olmoshi - hech kim, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi kabi so'zlar inkor ma'nosini bildiradi;

7. Guman olmoshi - allakim, allanima, nimadir, kimdir, birov kabi so'zlar predmet va uning belgisini , miqdorini taxminlab, chamlab ko'rsatadi;

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdurahmonov X., Rafiyev M., Shodmonqulov D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1993 yil.
2. Мухитдинов X., Худойберганова Д., Умиров И. ва бошқа. Ҳозирги ўзбек адабий тили. (ўқув қўлланма), Т., Илм-зиё, 2004.
3. Abdusoliyeva Shahnoza “MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT” T A D Q I Q O T L A R jahon ilmiy – metodik jurnali
4. A'zamov S. Maktab grammatikasi va ilmiy grammatika xususida. "Til va adabiyot ta'limi", 1992 yil, 2-son, 32-33-bet.
5. Турсунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.
6. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. Т., 2009.